

MIGRATIONS SHAROITDA QADRIYATLAR TIZIMINING PSIXOSOTSIAL REKONSTRUKSIYASI

Umarova Shohida Absalomovna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Psixologiya kafedrası katta o'qituvchisi Chirchiq, O'zbekiston

ORCID: 0009-0004-3214-2588

E-mail: umarovashohida018@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21449996>

Annotatsiya: Ushbu maqolada chet elda mehnat faoliyatini olib borib, O'zbekistonga qaytgan migrantlarda qadriyatlar tizimining psixosotsial rekonstruksiya ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Migratsiya jarayonida shaxsning ijtimoiy tajribasi, madaniy muhiti va hayotiy qarashlarida yuz beradigan o'zgarishlar uning qadriyatlar tizimiga bevosita ta'sir ko'rsatishi asoslab berilgan. Shuningdek, qaytgan migrantlarning oilaviy, milliy va ijtimoiy qadriyatlarni qayta anglash jarayoni, ularning psixologik moslashuvi hamda jamiyatga reintegratsiyalashuvining psixosotsial mexanizmlari yoritilgan. Muallif tomonidan qadriyatlar tizimining psixosotsial rekonstruksiya shaxsning yangi ijtimoiy tajribalar asosida qadriyatlarni qayta baholashi, milliy identifikatsiyasini tiklashi va jamiyat bilan yangi ijtimoiy munosabatlarni shakllantirishi jarayoni sifatida talqin etiladi.

Kalit so'zlar: migratsiya, qaytgan migrant, qadriyatlar tizimi, psixosotsial rekonstruksiya, ijtimoiy moslashuv, oilaviy qadriyatlar, milliy identifikatsiya, reintroduksiya, akkultursiya, reintegratsiya.

Kirish: So'nggi yillarda xalqaro migratsiya dunyo miqyosida eng faol ijtimoiy-demografik jarayonlardan biriga aylandi. Mehnat, ta'lim yoki boshqa ijtimoiy-iqtisodiy sabablar tufayli millionlab insonlar uzoq muddat xorijiy davlatlarda istiqomat qilmoqda. Migratsiya nafaqat shaxsning iqtisodiy ahvoriga, balki uning dunyoqarashi, qadriyatlari, ijtimoiy munosabatlari va psixologik holatiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, chet elda ma'lum muddat yashab, keyinchalik o'z yurtiga qaytgan migrantlarning hayotida murakkab psixologik va ijtimoiy o'zgarishlar yuz beradi. Bunday o'zgarishlar, avvalo, shaxsning qadriyatlar tizimi va ijtimoiy identifikatsiyasida namoyon bo'ladi.

Bugungi globallashuv sharoitida inson bir vaqtning o'zida turli madaniyatlar, turmush tarzi va ijtimoiy me'yorlar bilan bevosita muloqot qiladi. Migratsiya jarayonida o'zlashtirilgan yangi tajriba, kasbiy faoliyat, madaniy muhit va kundalik turmush tarzi shaxsning ilgari shakllangan qarashlari hamda qadriyatlarini qayta ko'rib chiqishiga sabab bo'ladi. Shu bois migrant vatanga qaytgach, u nafaqat yangi ijtimoiy sharoitga moslashadi, balki xorijda shakllangan qadriyatlarini milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish zaruratiga ham duch keladi. Mazkur jarayon psixologiya va sotsiologiyada psixosotsial rekonstruksiya deb qaralishi mumkin.

Qaytgan migrantlar ko'pincha "ikki madaniyat tajribasi"ga ega bo'lgan shaxslar sifatida jamiyatga qayta kirib keladi. Bir tomondan, ular xorijiy jamiyatda shakllangan mehnat madaniyati, vaqtga munosabat, shaxsiy mas'uliyat, qonunlarga rioya qilish va mustaqil qaror qabul qilish kabi qadriyatlarni o'zlashtirgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, O'zbekiston jamiyatining oilaparvarlik, jamoaviylik, mahalla an'analari, qarindoshlik munosabatlari va milliy qadriyatlari bilan yana yuzma-yuz keladi. Natijada shaxs ongida qadriyatlar tizimining qayta shakllanishi, ayrim qadriyatlarning mustahkamlanishi, ayrimlarining esa yangicha mazmun kasb etishi kuzatiladi. Muallifning fikricha, qaytgan migrantlarning jamiyatga moslashuvini faqat iqtisodiy yoki huquqiy

integratsiya nuqtai nazaridan baholash yetarli emas. Ushbu jarayonning markazida insonning psixologik holati, ijtimoiy aloqalari va qadriyatlar tizimidagi o'zgarishlar turadi. Chunki shaxsning jamiyatdagi faolligi, oilaviy munosabatlari, kasbiy faoliyati va fuqarolik pozitsiyasi aynan uning qadriyatlar tizimi orqali namoyon bo'ladi. Agar migratsiya davomida shakllangan yangi qadriyatlar milliy va oilaviy qadriyatlar bilan uyg'unlashsa, qayta integratsiya jarayoni nisbatan muvaffaqiyatli kechadi. Aksincha, qadriyatlar o'rtasidagi nomuvofiqlik psixologik zo'riqish, ijtimoiy begonalashuv va oilaviy nizolarni keltirib chiqarishi mumkin. Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, O'zbekistonda qaytgan migrantlarning psixologik moslashuvi bo'yicha ayrim tadqiqotlar mavjud bo'lsa-da, ularning qadriyatlar tizimining psixosotsial rekonstruksiya kompleks ilmiy yondashuv asosida yetarli darajada o'rganilmagan. Ayniqsa, xorijda shakllangan qadriyatlarning milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashuvi, oilaviy munosabatlarga ta'siri, ijtimoiy identifikatsiyaning qayta tiklanishi hamda shaxsning psixologik farovonligiga ko'rsatadigan ta'sirini ilmiy tahlil qilish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Mazkur maqolaning maqsadi chet elda yashab, O'zbekistonga qaytgan migrantlarda qadriyatlar tizimining psixosotsial rekonstruksiya jarayonini nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilish, ushbu jarayonga ta'sir etuvchi psixologik hamda ijtimoiy omillarni aniqlash va ularning jamiyatga muvaffaqiyatli reintegratsiyalashuvini ta'minlashga xizmat qiluvchi ilmiy xulosalarni ishlab chiqishdan iboratdir.

Tadqiqot metodologiyasi: Tadqiqotda migratsion sharoitda qadriyatlar tizimining psixosotsial rekonstruksiya qilishda tizimli yondashuv hamda psixologik va sotsiologik metodlardan foydalanildi. Nazariy asos sifatida U. Bronfenbrenner, J. Berry, S. Schwartz, H. Tajfel va A. Giddens nazariyalari qo'llanildi. Ilmiy adabiyotlar, xalqaro hisobotlar va qaytgan migrantlarga oid tadqiqotlar tahlil qilinib, qadriyatlar tizimidagi o'zgarishlarning psixologik hamda ijtimoiy mexanizmlari yoritildi. Psixosotsial rekonstruksiya migratsiya davomida shakllangan yangi tajribalarni milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish jarayoni sifatida talqin qilindi.

Asosiy qism: Psixologiyada qadriyatlar shaxsning xulq-atvori va qarorlarini boshqaruvchi ichki mezonlar sifatida talqin qilinadi. Ular insonning hayotiy maqsadlarini belgilaydi, ijtimoiy munosabatlarini tartibga soladi hamda shaxsning identifikatsiyasini shakllantiradi. Shu sababli migratsiya jarayonida yuz beradigan har qanday ijtimoiy yoki madaniy o'zgarish, avvalo, insonning qadriyatlar tizimiga ta'sir qiladi. S. Schwartz qadriyatlarni inson faoliyatini boshqaruvchi universal psixologik tamoyillar sifatida izohlaydi. Uning fikricha, xavfsizlik, an'ana, mustaqillik, xayrixohlik, muvaffaqiyat va o'zini rivojlantirish kabi qadriyatlar turli madaniyatlarda mavjud bo'lsa-da, ularning ustuvorlik darajasi jamiyatning ijtimoiy-madaniy sharoitiga bog'liq ravishda o'zgaradi. Migratsiya sharoitida aynan ushbu ustuvorliklarning qayta taqsimlanishi qadriyatlar tizimining rekonstruksiya qilishini yuzaga keltiradi. Ijtimoiy identifikatsiya nazariyasiga ko'ra, inson o'zini muayyan ijtimoiy guruh a'zosi sifatida anglash orqali shaxsiy identifikatsiyasini shakllantiradi. Migratsiya jarayonida shaxsning "men" obrazi yangi ijtimoiy tajribalar ta'sirida o'zgaradi. Vatanga qaytgach esa u xorijda shakllangan identifikatsiyasi bilan milliy identifikatsiyasini uyg'unlashtirishga harakat qiladi. Mazkur jarayon ayrim hollarda psixologik noqulaylik yoki "teskari madaniy shok" (reverse culture shock) holatini keltirib chiqarishi mumkin. Tatqiqochi fikricha, qaytgan migrantlarda qadriyatlar tizimining psixosotsial rekonstruksiya uch bosqichda kechadi. Birinchi bosqich — qadriyatlarning dekonstruksiya qilinishi, bunda xorijiy muhit ta'sirida avvalgi qarashlar qayta ko'rib chiqiladi. Ikkinchi bosqich — integratsiya, ya'ni xorijiy tajriba bilan milliy qadriyatlarning uyg'unlashuvi sodir bo'ladi. Uchinchi bosqich esa rekonstruksiya bo'lib, unda shaxs yangi hayotiy tajribalar asosida barqaror qadriyatlar tizimini shakllantiradi. Mazkur

model qaytgan migrantlarning psixologik moslashuvi va jamiyatga muvaffaqiyatli reintegratsiyasini tushuntirishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Shunday qilib, migratsiya sharoitida qadriyatlar tizimining psixosotsial rekonstruksiya shaxsning yangi madaniy tajribalarni o'zlashtirishi, ularni milliy va oilaviy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirishi hamda jamiyatdagi yangi ijtimoiy mavqeini shakllantirish jarayonini ifodalaydi. Mazkur jarayonning muvaffaqiyatli kechishi shaxsning psixologik farovonligi, oilaviy munosabatlari va jamiyatga moslashuv darajasini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

Migratsiya jarayoni inson hayotining deyarli barcha jabhalariga ta'sir ko'rsatadigan murakkab psixologik va ijtimoiy hodisa hisoblanadi. Ayniqsa, uzoq muddat xorijda yashab, mehnat faoliyatini olib borgan shaxs vatanga qaytgach, u nafaqat yangi ijtimoiy muhitga, balki ilgari o'zi yashab kelgan muhitga ham qayta moslashishga majbur bo'ladi. Bu jarayon shaxsning qadriyatlar tizimi, dunyoqarashi, ijtimoiy munosabatlari va hayotiy maqsadlarini qayta ko'rib chiqish bilan kechadi. Shu bois qaytgan migrantlarda qadriyatlar tizimining psixosotsial rekonstruksiya migratsiyaning eng muhim psixologik natijalaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Biroq barcha migrantlarda ham mazkur jarayon bir xil kechmaydi. Ayrim shaxslar xorijda shakllangan qadriyatlarni milliy qadriyatlar bilan muvaffaqiyatli uyg'unlashtira olsa, boshqalarda qadriyatlar konflikti kuzatiladi. Bu holat, ayniqsa, oilaviy munosabatlarda yaqqol namoyon bo'ladi. Masalan, xorijda mustaqil qaror qabul qilishga o'rgangan shaxs vatanga qaytgach, oiladagi an'anaviy rollar va qaror qabul qilish tizimiga moslashishda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Ayrim hollarda esa iqtisodiy mustaqillikning ortishi oiladagi o'zaro munosabatlarning mazmunini ham o'zgartiradi. Shuningdek, qaytgan migrantlarda ijtimoiy maqomning o'zgarishi ham qadriyatlar tizimining rekonstruksiya ta'sir ko'rsatadi. Xorijda yuqori daromadga ega bo'lgan shaxs vatanga qaytgach, avvalgi kasbiy yoki iqtisodiy mavqeini tiklay olmasa, unda psixologik qoniqmaslik, o'ziga bo'lgan ishonchning pasayishi yoki ijtimoiy begonalashuv holatlari yuzaga kelishi mumkin. Bunday vaziyatlarda shaxsning psixologik barqarorligi ko'p jihatdan oilasi, yaqinlari va mahalla tomonidan ko'rsatiladigan ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga bog'liq bo'ladi.

Qaytgan migrantlarda eng katta o'zgarishlardan biri oilaviy qadriyatlar tizimida kuzatiladi. Oila shaxsning psixologik tayanchi va ijtimoiy moslashuvining asosiy muhiti bo'lib, migratsiyadan keyingi rekonstruksiya jarayonida muhim rol o'ynaydi. Xorijda uzoq muddat yashash davomida shakllangan yangi tajriba oiladagi munosabatlarga, ota-onalik uslubiga, turmush o'rtoqlar o'rtasidagi muloqotga va farzandlar tarbiyasiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Ko'plab qaytgan migrantlar oilada mas'uliyatni taqsimlash, moliyaviy boshqaruv, farzandlar ta'limiga munosabat va kundalik hayotni tashkil etishda xorijda o'zlashtirilgan tajribalarni qo'llashga intiladi. Bu holat ayrim oilalarda ijobiy natijalar berib, oila a'zolari o'rtasida hamkorlik va o'zaro hurmatni kuchaytiradi. Biroq ayrim hollarda yangi qarashlarning an'anaviy oilaviy qadriyatlar bilan mos kelmasligi oilaviy nizolarni ham keltirib chiqarishi mumkin. Farzandlar tarbiyasida ham sezilarli o'zgarishlar kuzatiladi. Qaytgan migrant ota-onalar bolalarda mustaqillik, mas'uliyat, mehnatsevarlik va vaqtni qadrlash kabi sifatlarni rivojlantirishga ko'proq e'tibor qaratadi. Shu bilan birga, milliy urf-odatlar, ona tili va oilaviy an'analarni saqlab qolish ham ular uchun muhim qadriyat bo'lib qoladi. Natijada oilada milliy va zamonaviy qadriyatlarning uyg'unlashuvi yuz beradi. Qaytgan migrantlarning psixosotsial rekonstruksiya "teskari madaniy shok" (reverse culture shock) alohida ahamiyatga ega. Mazkur hodisa shaxsning xorijda shakllangan hayot tarzi va qadriyatlari bilan vatandagi ijtimoiy muhit o'rtasidagi tafovutni his qilishi natijasida yuzaga keladi. Ko'pchilik migrantlar vatanga qaytgach, o'zini ilgari yaxshi bilgan jamiyatda ham "begona"dek his qilishi mumkin. Bunday holat dastlab psixologik noqulaylik, tushkunlik, xavotir yoki ijtimoiy faollikning pasayishi

orqali namoyon bo'ladi. Ayrim migrantlar xorijda odatlangan mehnat tartibi, xizmat ko'rsatish sifati yoki ijtimoiy munosabatlarni sog'inadi. Shu bilan birga, yaqin qarindoshlar va mahalla tomonidan bildirilayotgan yuqori kutishlar ham ularga qo'shimcha psixologik bosim yuklashi mumkin. Shu sababli qaytgan migrantlarni jamiyatga muvaffaqiyatli reintegratsiya qilishda psixologik maslahat xizmatlarini rivojlantirish, mahalla va oila institutlarining qo'llab-quvvatlashini kuchaytirish, shuningdek, kasbiy moslashuv dasturlarini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Muallifning fikricha, psixosotsial rekonstruksiya faqat shaxsning ichki moslashuvi emas, balki jamiyatning ham qaytgan migrantni qabul qilishga tayyorligi bilan chambarchas bog'liqdir.

XULOSA: Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, migratsiya shaxsning iqtisodiy faoliyatigagina emas, balki uning psixologik rivojlanishi, ijtimoiy identifikatsiyasi va qadriyatlar tizimiga ham chuqur ta'sir ko'rsatadi. Chet elda yashab, O'zbekiston Respublikasiga qaytgan migrantlarning psixosotsial rekonstruksiya murakkab va ko'p bosqichli jarayon bo'lib, unda shaxs xorijiy tajriba asosida shakllangan qadriyatlarini milliy va oilaviy qadriyatlar bilan uyg'unlashtiradi. Ushbu jarayonning muvaffaqiyatli kechishi shaxsning psixologik farovonligi, oilaviy barqarorligi va jamiyatga faol integratsiyalashuvining muhim sharti hisoblanadi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, migratsiya davomida o'zlashtirilgan mehnat madaniyati, vaqtni qadrlash, iqtisodiy mustaqillik va shaxsiy mas'uliyat kabi qadriyatlar qaytgan migrantlarning kundalik faoliyatida saqlanib qoladi. Shu bilan birga, O'zbekiston jamiyatiga qaytish jarayonida oilaparvarlik, mahalla institutiga hurmat, qarindoshlik rishtalari va milliy an'analarga asoslangan qadriyatlar bilan uyg'unlashish zarurati yuzaga keladi. Aynan shu uyg'unlashuv psixosotsial rekonstruksiyaning mazmunini belgilaydi. Migrantlarni jamiyatga muvaffaqiyatli reintegratsiya qilish faqat iqtisodiy qo'llab-quvvatlash bilan cheklanmasligi lozim. Psixologik maslahat xizmatlari, oilaviy maslahat markazlari, mahalla institutlari va ta'lim tizimining o'zaro hamkorligi shaxsning qadriyatlar tizimini sog'lom rekonstruksiya qilishda muhim omil hisoblanadi. Ayniqsa, oilaning emotsional qo'llab-quvvatlashi, ijtimoiy aloqalarning tiklanishi va kasbiy o'zini namoyon etish imkoniyatlari migrantning psixologik barqarorligini ta'minlaydi. Shuningdek, tadqiqot davomida ishlab chiqilgan "Qaytgan migrantlarda qadriyatlar tizimining psixosotsial rekonstruksiya" konseptual modeli mazkur yo'nalishdagi keyingi ilmiy izlanishlar uchun nazariy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Model psixologiya, pedagogika, sotsiologiya va migratsiya tadqiqotlari kesishgan nuqtada yangi ilmiy yondashuvni taklif etadi.

Xulosa qilib aytishim lozimki, migratsion sharoitda qadriyatlar tizimining psixosotsial rekonstruksiya zamonaviy jamiyatda inson kapitalini rivojlantirish, oilaviy barqarorlikni mustahkamlash va qaytgan migrantlarning ijtimoiy faolligini oshirishga xizmat qiluvchi muhim ilmiy-amaliy yo'nalish hisoblanadi. Ushbu jarayonni chuqur o'rganish va uning natijalarini amaliyotga tatbiq etish O'zbekiston Respublikasida migratsiya siyosatini takomillashtirish hamda qaytgan migrantlarni qo'llab-quvvatlash tizimini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Castles S., Miller M. The Age of Migration. London: Guilford Press, 2020.
2. International Organization for Migration (IOM). World Migration Report 2024.
3. United Nations Development Programme (UNDP). Human Development Report 2023/2024.
4. UNICEF. Migration and Children in Central Asia. New York, 2023.
5. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2023.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. Migratsiya statistikasi bo'yicha ma'lumotlar. – Toshkent, 2024.
7. Oila va xotin-qizlar qo'mitasi. Oila institutini mustahkamlash bo'yicha metodik tavsiyalar. – Toshkent, 2024.
8. Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash vazirligi. Mahalla institutining ijtimoiy rivojlanishdagi o'rni. – Toshkent, 2023.
9. Abdurahmonov Q. X. Mehnat iqtisodiyoti. – Toshkent: Fan, 2021.
10. Yadgarov A. Migratsiya sotsiologiyasi. – Toshkent, 2022.
11. Nishonova Z. T. Shaxs psixologiyasi. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2020.
12. G'oziyev E. G'. Umumiy psixologiya. – Toshkent, 2021.
13. Karimova V. M. Oila psixologiyasi. – Toshkent, 2022.
14. To'laganova G. Migratsiya va ijtimoiy moslashuvning psixologik jihatlari. – Toshkent, 2023.